

ABDULLA AVLONIYNING DIDAKTIK ASARLARI UMUMIY TAVSIFI

*Bekbo'tayeva Go'zal Aliqul qizi**Termiz davlat pedagogika instituti magistranti**Telefon raqam: +998972349192*

Annotatsiya: Ushbu maqolada o‘quvchilarni har tomonlama yetuk va barkamol, yuksak insoniy fazilatlarga ega qilib tarbiyalashda hamda yomonlikdan qaytarib, yaxshilikka chorlashda Abdulla Avloniying ta’lim-tarbiyaga oid asarlari nechog’lik muhim manba ekanligini, ushbu asarni hozirgi hayotimizda o‘rganish va o‘rgatish muhimligi yoritilgan.

Kalit so’zlar: Abdulla Avloniy, “Birinchi muallim”, “Ikinchi muallim”, “Turkiy giliston yohud axloq”, “Maktab gulistoni” asarlari, sabr, axloq, tarbiya, mакtab, bilim

ОБЩАЯ ХАРАКТЕРИСТИКА РАБОТ ДИДАКТИЧЕСКИХ
АБДУЛЛЫ АВЛАНИ

Бекбулаева Гузал Аликул кизи

Аспирант Термезского государственного педагогического института

Телефон номер: +998972349192

Аннотация : В этот статье мы показываем, насколько важны просветительские работы Абдуллы Авлани в воспитании учащихся, чтобы они стали зрелыми и полноценными, с высокими человеческими качествами, а также отвратили их от зла и побудили их делать добро.

Ключевые слова: Абдуллы Авлани, “Первый учитель”, “Второй учитель”, “Турецкий Гулистан или этика”, “Школа Гулистан” работает, терпение, этика, образование, школа, знание.

GENERAL DESCRIPTION OF ABDULLA AVLONI S DIDACTIC WORKS

BEKBUTAYEVA GUZAL ALIQL QIZI

GRADUATE STUDENT OF TERMIZ STATE PEDAGOGICAL INSTITUTE

PHONE NUMBER:+998972349192

Annotation: In this article,it is explained how important the works of Abdulla Avlani are in educating students to have mature and well-rounded high human qualities and encouraging them to turn away from evil and to good, and the importance of learning and teaching this work in our current life.

Keyword: Abdulla Avlani, “The first teacher”, “the second teacher”, “Turkish Gulistan or Morality”, “School Gulistan”, works, patience, morals, education, school, knowledge.

Abdulla Avloniyning didaktik asarlari umumiy tavsifi. Bu davrda yaratilgan darsliklar orasida Abdulla Avloniyning asarlari alohida o’rin tutadi. Avloniyning boshlang’ich maktab o’quvchilari uchun «Birinchi muallim» (1912), «Ikkinchi muallim» (1912), «Turkiy guliston yoxud axloq» (1913), «Maktab gulistoni» (1916) va to’rt juz (qism)dan iborat «Abadiyot yoxud milliy she’rlar»i (1909-1916) XX asr boshlaridagi o’zbek bolalar adabiyotining eng yorqin sahifalarini tashkil etadi. Muallif kitoblari yaratilishi sababini shunday izohlaydi: «Bizim Turkiston maktabi islomiyasinda avvaldin oxira qadar ta’lim o’linajak kitoblar «Chor kitob», «Sabot-ul ojizin», «Fuzuliy», «Navoiy», «Xo’ja Hofiz», «Bedil» va «Maslak-ul muttaqin»lar kabi she’r kitoblari o’ldig’i jumlaning ma'lumidur. Bu kitoblarining ba’zilari e’tiqod va amaliyoti islomiyag’a taalluq mashkur masalalardan iborat o’lg’onlaridin hamda aksarlari forsiy tilda yozg’onlari uchun yosh bolalarning onlardin istifodalari, bir narsa anglamoqlari imkon xorijinda edi. Voqyean o’z ona tilini durust bilmagan, emdigina harflarni bir-biridan ayirgan bir yosh bolaning qo’liga «Chor kitob»ni berib, «Ibtido mekunam ba nomi xudo»; yoki «Sabot-ul ojizin»ni berib, «Sano lil xoliq-ul g’affor-ul aflok» kabi forsiy va arabiylisondarda yozilmish... jumlalarni o’qutmak ila yerdan turub yulduzga qo’l uzatmak yoki igna ila quduq qazimoq orasida farq yo’qtur»¹. «Turkiston maktablarida o’z shevamizda yozilgan mukammal «axloq» kitobining yo’qligi, afrodi millatning shunday bir asarga tashna va muhtojligi» «o’zi muallimlar jumlasidan o’lmish» taniqli o’zbek ma’rifatparvari Abdulla Avloniyiga qattiq ta’sir qiladi, «shuning uchun ko’p vaqtlar tajriba so’ngidan adibi muhtaram Shayx Sa’diy usulinda yozmakni, garcha og’ir ish bo’lsa ham»² o’ziga muqaddas bir vazifa deb hisoblagan Avloniy «Turkiston guliston yoxud axloq» asarini yozib tugallaydi va 1913 yilda chop ettiradi. Asar, muallifning ta’kidlashicha: «insonlarni yaxshilikg’cha qo’qiruvchi, yomonlikdan qaytarguvchi bir ilm» – Axloq xususidadir. Biroq Avloniy asari Shayx Sa’diy «Guliston»iga shunchaki nazira yoxud ergashish natija emas, balki o’z davri va kitobxonasi xususiyatlarini to’la hisobga olgan tom ma’nodagi yangicha bir asar hamdir.

Chunonchi, Shayx Sa’diyning «Guliston»ida odamlar nasl-nasabi va rutbasiga ko’ra toifalarga ajratilib, har bir toifaga xos bo’lgan xususiyatlar haqida alohida boblardagi hikoyatlarda fikr yuritilgan edi (bunday toifalashtirish aslida mumtoz adabiyotimizdagi pondnomaga janriga mansub asarlarning ko’pchiligiga, jumladan, Navoiyning «Mahbub-ul qulub»iga ham xosdir). «Turkiy guliston»da esa muallif

¹ Avloniy A. Adabiyot yoxud milliy she’rlar. 1-juz. 1-tab’i. –Toshkent, 1909. 1-2-b.

² Avloniy Abdulla. Turkiy guliston yoxud axloq. – Toshkent, 1917, 2-tab’i, 95-b.

kitobxonlari saviyasini hisobga olib, umumlashma – tom ma'nodagi komil inson xususida fikr yuritadi. Avloniy nazida bani Odam shohmi, gadomi, boymi, kambag'almi – jamiyatda tutgan ijtimoiy mavqyeidan qat'i-nazar, avvalo, inson farzandi va insoniylikni belgilovchi sifatlar shu sabali ham barcha uchun mushtarakdir. Zero: Xudoning rahmati, fayzi hama insonga yaksardur, Va lekin tarbiyat birla yetushmak sharti akbardur. Tug'ub tashlov bila bo'lmas bola, bo'lg'ay balo sizga, Vududi tarbiyat topsa, bo'lur ul rahnamo sizga. Temurchining bolasi tarbiyat topsa, bo'lur olim, Buzulsa xulqi, Luqmon o'g'li bo'lsa, bo'g'usi zolim. Yomonlarga qo'shuldi Nuhning o'g'li, o'ldi beimon, Yururdi Kahf iti xo'blar ila, bo'ldi oti inson, deydi muallif. «Turkiy guliston»da muallif yoshlarni insoniy fazilatlarni egallahsha da'vat qiladi. Biroq insoniy sifatlarga erishish uchun dastlab ularning nimalardan iborat ekanini ham bilish kerakda. Shu sababli muallif yosh kitobxonlarga dastlab inson va uning zohiriy hamda botiniy sifatlari xususida ma'lumot beradi: «...inson ikki narsadin murakkabdur. Biri hasad, ikkinchisi nafsdur. Jasad ko'z ila bor narsalarni ko'rur. Ammo nafs idrok ila yaxshini yomondin, ojni qordin ayirur». Insonlarning xulqlarini ikkiga bo'lmishlar: agar nafsi tarbiyat topub, yaxshi ishlarni qilurga odat qilsa, yaxshilikg'a tavsif bo'lub yaxshi xulq; agar tarbiyatsiz o'sub, yomon ishlarni ishlayduran bo'lub ketsa, yomonlikg'a tavsif bo'lub yomon xulq deb atalur» muallif «axloq ulamosi» deyish bilan bu fikrlar an'anaviyligiga ishora qiladi. Zero, o'tmish adabiyotimizdagi o'nlab pandnoma asarlarning maxsus boblari ayni shu masalaga, ya'ni yaxshi va yomon xulqlar tavsifiga bag'ishlangan.

Xullas, «Turkiy guliston»da yaxshi va yomon xulqlarga umumiyligi tavsif berib bo'lgach, ularni tasnif qiladi: Yaxshi xulqlar: fatonat, diyonat, islomiyat, nazofat, g'ayrat, riyozat, qanoat, shijoat, ilm,sabr, hilm, intizom, miqyosi nafs, vijdon, vatanni suymak, haqqoniyat, nazari ibrat, iffat, hayo, idrok va zako, hifzi lison, iqtisod, viqor, xavf va rajo, itoat, haqshunoslik, xayrixohlik, munislik, sadoqat, muhabbat va afvdur». «axloqi zamimalar: g'azab, shahvat, jaholat, safoat, hamoqat, atolat, xasosat, raxovat, anoniyat, adovat, namimat, g'iybat, haqorat, jibonat, hasad, nifoq, tama', zulmdur». Biroq muallif inson xulqini shunchaki ikki guruhgaga ajratib tasnif qilish bilan cheklanmaydi. Balki «bu sanagan yomon xulqlarning fanoliqlarini, yuqorida sanagan yaxshi xulqlarning go'zalligini insof muvozanasi ila o'lchab, vijdon muhokamasi ila tahqiqlab, yaxshilarini tinglab amal qilmak, yomonlarini anglab hazar qilmak lozimdurdur. Zeroiki, insonning izzati, dunyoning lazzatiyaxshi so'zlarni eshituv va ko'rub hissa olmak, yomon va zararliklarini o'qub bilub o'zini tiymak, qo'ldan kelguncha xalq va millat foydasiga tirtishmak va fano dunyodin yaxshilik otini olib ketmakdadur», deya kitobxonni insoniylik sari chorlaydi. Anashu sifat – yosh avlodni yaxshilik sari undash, yomonlikdan asrash – asarning boshidan oxirigacha «qizil ip» bo'lib o'tadi.

Muallif har bir yaxshi yoki yomon xulq xususida fikr yuritib, uning o'ziga xosliklarini bittalab sanaydi, fikri dalili uchun o'tmish donishmandlari hikmatlaridan

misollar keltiradi va «qissadan hissa» – she'riy xulosa bilan yakunlaydi. Masalan, sabr xususida Avloniy shunday yozadi: «Sabr deb boshimizga kelgan balovu qazolarga chidamli bo'lma kni aytilur. Har bir ishda sabru sovuqqon ila harakat qilmak lozimdur. Chunki boshimizga keladurgon balovu qazo, zahmatu mashaqqatlarning barchasi janobi Haqning irodasi ila o'ldig'i uchun bularga sabrsizlik qilgan kishilar ajru savobdin quruq qolurlar. Sabr insonlar uchun buyuk bir fazilatdurki, janobi Haq sobirlarni suyar. Qur'oni karim ichida ko'p yerda sabrni, sobirlarni madh qilmishdur. Shariati islomida janobi Haq tarafidin kelgan balovu qazog'a sabr qilmoq farzi ayndur. Inson har bir ishni sabru matonat ila ila yurutsa, maqsudiga tinchu rohatda borub yetar. Hamisha saodatda yashar. Sekin borgan kishi maqsuda yetgay, Shoshub besabrlar kaj yo'lga ketgay. Agar sabring bo'lsa nafsinga yo'ldosh, Seni tavriqa rabboniya eltgay. Nafsni sabr ila rom qilgan kishi har ishda oshiqmay, ohista harakat qilur. Nafsni halokatdan, g'ururdan saqlar. Sabr shunday bir kuchli narsadurki, shahvatni iffatga, g'azabni shijoatga, shiddatni hilmga, kattalikni tavoze'ga, yomonlikni yaxshilikka aylandurmakg'a quvvati yetar. Shul xususda so'ylanmish bir adisi sharifning ma'nosi – «Ilm – iymonli kishilarning muhibi, hilm – homysi, aql – dalili, yaxshi amal – sarmoyasi, muloyimat – validi, afv – axvoni, sabr – hokmi vijdonidur» deyilmish. Arablar «Assabru miftoh-ul farah» – sabr shodlig'ning kalididur», - deyurlar. Sabr ila har mushkul ish zojil bo'lur, Sabr edan maqsudina noyil bo'lmas.

Har kishida bo'lmasa sabri jamil,
Nafs ko'yina yurub soyil bo'lur.
Sabr qilsang, g'o'rardin halvo bitur,
Sabrsizlar o'z oyog'idin yitur.

E'tibor berilsa, «sabr» xususidagi maqolat muxtasar bo'lsa-da, tugallangan bir asar. Zero, uning birinchi qismida sabrga ta'rif berilgan, ikkinchi qismida nima uchun sabr qilish kerakligi bayon qilingan. Yozuvchi kitobxonni sabr degan ne'matdan bahramand bo'lishga tashviq qilar ekan, muallif inson boshiga keladigan baloyu qazolar tasodifiy emas, balki Ollohu taolo tomonidan yuboriladigan sinovlar ekani, shu sinovlardan sabr qilib, chidam bilan o'ta olgan insongina ajru savobga doxil bo'lishi, ikki dunyo maqsadiga erishishi mumkinligini alohida ta'kidlaydi. Fikri dalili sifatida hadisi sharifdan keltirilgan misol va arab maqoli esa yosh kitobxon nazdida bu fikrlarini yana bir tasdiqlaydi. Avloniy shoir sifatida fikrning aqlga, she'rning esa yurakka ta'sir etishini hyech qachon xotiridan faromush qilmaydigan ijodkordir. Maqolatdagi she'rlar shu ma'noda to'g'ridan-to'g'ri yosh kitobxon yuragiga, qalbiga ta'sir qiladigan shifobaxsh malham vazifasini o'taydi. Bundan tashqari, yana shuni ham ta'kidlash joizki, maqolatdagi har bir jumla o'ziga tuzallangan tezisdirdi.

Muallif sabrning fazilatlari to'g'risida tezislarni o'traga tashlar ekan, har birida alohida-alohida tasdiqlashni ham unutmaydi. «sabr qilsang g'o'rardin halvo bitar, Sabrsizlar o'z yog'ida yitar» degan o'zbek xalq maqollari esa sabr haqidagi fikrlarini

yakuniy xulosasi, qaymog'i sifatida bir kitobxon qalbi to'ridan o'rinn egallashi aniq. «Turkiy guliston»da yaxshi va yomon xulqlar to'g'risida bildirilgan fikrlar umuminsoniyligi bois eskirmaydigan, hyech qachon ahamiyatini yo'qtomaydigan fikrlardir. «Hifzi lison» maqolati shu jihatdan e'tiborga sazavor: «Hifzi lison deb har bir bir millar o'z ona ti va adabiyotini saqlamagini aytilur. Har bir millatning dunyoda borligini...», «...milliy tilni yo'qotmak millatning ruhini yo'qotmakdur». Milliy ruhni yo'qotmaklik oqibatni shoir keyingi jumlalarida yanada ochiq tasvirlaydi: «Hahot! Biz turkistonliklar milliy tilni saqlamak bir tarafda tursun, kundan-kun unutmak va yo'qotmakdadurmiz. Tilimizning yarmiga arabiy, forsiy ulangani kamlik qilub, bir chetiga rus tilini ham yopushmakdadurmiz» muallif o'z millatining va ona tilining jonkuyari sifatida o'quvchilarini tilni asrashga, uni g'ayti tillar so'zları bilan buzmaslikka undaydi. Biroq bu g'ayri tillarni o'rganishga qarshi chiqish emas. chunki tilimizda ming yillardan beri o'zlashib ketgan, hattoki o'z so'zimiz bo'lib qolgan arabiy va fosiy so'zlar bir jihatdan lug'at boyligimizni oshirayotgan bo'lsa, ikkinchi jihatdan til tozaligni buzatyotgani ham aniq.

Muallif esa «bizlarga hukumatimiz bo'lg'on rus lisonini bilmak hayot va saodatimiz uchun oshu non kabi keraklik narsa» ekanini qayd etgan holda «o'z yerinda ishlatmak va so'zlamak lozimdir. Zig'ir yog'i solub, moshkichiri kabi qilub aralash quralash qilmak tilningruhini buzadu» deb ta'kidlaydi. Hifzi lison (tilni asrash) bobida muallifni eng qiynaydigan narsa shuki, «Yohu! Bizga na bo'lidi? Bobolarmiz yo'lidan chiqib ketduk. Yaxshi qo'shningdan olguncha yomon uyingni qidir», -demishlar. Bobokalonlarimizga yetushgon va yaragan muqaddas til va adabiyot bizga hyech kamlik qilmas. O'z uyimizni qidirsak, va axtarsak, yo'qolganlarini ham toparmiz. «Yo'qolsa yo'qolsun, o'zi boshimga tor edi», - deb, yevrupo qalpog'ini kiyub, kulgi bo'lmay zo'r ayb va uyatdur. Payg'ambarimiz: «Erlarda jamol lson va tildur, - denglar. Muallif tilni asrash borasida ibratli fikrlarni ilgari surar ekan, yoo'larni, ayniqsa, yosh kitobxonlarni o'z ona tilini sevishga va uni avaylab asarashga undaydi, shoirning iztirob va qalb tug'yonlari she'r bo'lib otlib chiqadi: Ey ona til, aziz qadrdonim! Iltifoti ruhim, rahmonim! Tug'dig'im kundin aylading ulfat, O'lguncha ayrılma, ey jonim! Menga ilmu adab san o'rgatding, Chin adib, muallim, shonim! Millatning ruhini ko'targuchisan, Eng muqaddas karmli sultonim! Avloniy ona tilini «qadirdonim», «rahmonim», «shonim», «adib», «muallim», «iltifoti ruhim», «karamli sultonim» deb qalbidagi eng yuksak ta'riflari bilan madh etar eakn, bu madhiya o'z navbatida baxтиyor o'quvchi – kitobxon qalbiga ko'chadi, uni ona tilisiga e'zoz va iftixor tuyg'ulari bilan boyitadi. Avloniy hifzi lison to'g'risida fikr yuritar ekan, masalaning yana bir jihatini ham e'tibordan chetda qoldirmaydi. har bir kishining og'izdag'i tilini asrash masalasidir. Zero, «umumiyl milliy tilni saqlamak ila barobar xususiy- og'iz orasidagi tilni ham saqlamak lozimdir. Chunki so'z insonning daraja va kamolini, ilmu fazlini o'lchab ko'rsatadurgan tarozusidur. Aql sohiblari kishining dilidagi fikru niyatini, ilmu

madaniyatini, qadru qiymatini so'zlagan so'zidin bilurar». Muallif tilning naqadar qadrli narsa ekanini ta'kidlash uchun ta'rifu tavsiflarni haddi a'loasiga ko'taradi, fikri dalili uchun xalq maqollaridan «Quruq so'z qulqoqqa yoqmas», «Ko'p o'yla, oz so'zla» kabi ibratli misollarni keltiradi.buni ham she'riy xulosa fikrning rangin ifodasi o'laroq maqolatni bezab turuvchi yakun sifatida jaranglaydi.

Tilni asramoqlik borasida Avloniy fikrlari shu jihat bilan ham e'tiborliki, shoir mumtoz adabiyotimizdagi she'rni bezab turuvchi, ko'rk beruvchi badiiyat unsurlaridan ustalik bilan, o'z o'rnida foydalanadi. Shu misoldagi birgina o'xshatish (so'z – kumush, jim turish – oltin, ko'p so'zlash – mis, bu o'rinda «misi chiqmoq» – «yolg'oni ma'lum bo'lmoq» ma'nosidagi so'z o'yini hamdir)ning o'ziyoq shoir mahorati belgisidir. Inson xulqining boshqa yaxshi jihatlari xususida fikr yuritganida ham muallif shu yo'ldan boradi: avval ma'lum xislatga ta'rif beradi, so'ngra uning falsafiy asoslarini belgilaydi, xalq og'zaki ijodi va payg'ambarimiz hadislaridan misollar keltirib o'z fikrlarini dalillaydi, oxirida esa she'riy misol bilan yakunlaydi. Masalan: «Xavf va rajo» faslida «janobi Haqdan qo'rqg'an inson hyech narsadan qo'rmas»ligini tasdiqlash uchun Hazrati Ibrohim alayhissalomning o'tga tashlanishi misolini keltiradi: «Hazarti Ibrohim alayhissalomni Namrud otashga tashlay deb turgan zamonda: Yo ibrohim! Siz meni bu haroratli otashimdan qo'rqmazsiz-mi?» – dedi. Hazrat Ibrohim: «Ey zolim» alloh taolodan qo'rqg'an kishi Namrudning otashidan qo'rqarmu? – demishlvr» shuningdek, ma'lum bir xulqning fazilatlari xususida fikr yuritar ekan, muallif o'z zamonasida odamlarning haq yo'lidan toyib, yomon odatlarga ruju' qo'ya boshlaganlaridan noroziligini ham izhor qiladi. Masalan: «Afv» xususida fikrlari xulosasida keltirilgan she'r shu jihatdan e'tiborga molik: Avloniy yaxshi xulqlar bayonida qanchalik ta'rifu tavsifning yo'lini tutsa, yomon xulqlar ta'rifida shunchalik dalilu asos bian ham bir yomon xulqlar ta'rifida o'tmisht donishmandlari fikriga yanada ko'proq tayanadi., diniy va fanniy asoslar bilan kitobxonni yomon yo'lga kirib ketishdan saqlab qolishga harakat qiladi. «Jaholat» maqolati u jihatdan e'tiborga molikdir:

1. Muallif dastlab jaholatga ta'rif beradi, jaholatning manbaini ko'rsatadi, johilu nodonlarni ilmu donish egalariga qiyoslash yo'li bilan ularning haqiqiy qiyofalarini yanada ochiqroq ko'rsatadi. Zero, haqiqat qiyosda ma'lum bo'lishi ilmning xos sifatlaridandir: «Jaholat deb o'qimagan, bilimsiz, hyech nimaga tushunmaydurgon nodonligni aytilur. Jaholat insoniyatning eng zo'r dushmani va yomon xulqlarning boshlig'idur. Maorifdan, fununu madaniyatdan mahrum qolgan halq jaholat panjalarining asosida xamir kabi ezilgandek, af'oli zamimadan ham o'z nafsining yoqasini bo'shatolmas. Ilmu ma'rifat sohiblari fazlu kamollari soyasida har bir ishni tadqiqu mushohada qilurga aqlu farosatlari yetmas.chunki jahl xudbinu zohirparastdan iboratdur. Avloniy jaholatga ta'rif berar ekan, uning «insoniyatning eng zo'r dushmani va yomon xulqlarning boshlig'i» ekanini alohida ta'kidlaydi. Uning «eng qo'rinch

faqiru muhtojlikdan ziyoda dahshatliroq bir musibat» ekanini qiyosda ko'rsatib, kitobxonni «loyiqi e'tibor o'lmaq sharafindan mahrum» qolish xavfidan ogohlantiradi.

2. Jaholat haqidagi fikrlarini asoslash uchun muallif o'tmish donishmanlari, xalq og'zaki ijodi va islom dini peshvolari fikrlariga tayanadi: «Hazarat Ali: «Arbobi fazlu kamol johildan qancha izovu jafo cheksa, johil ham aqlu irfon sohibidan shuncha mutaassir bo'lur», - demishlar. ... Suqrot hakim: «Dunyoda eng hazar qilinadurgon illat jahldur. Men johilga achinganimdek ko'rga achinmayman, zeroki, johilning o'z ixtiyori ila qilgan harakati a'moning ixtiyorsiz qilgan harakatidan mening nazarimda xunuk, - demish. Arablar: «Aljohilu mayyit ul-ahyo – nodon kishi tirik o'luk», - deyurlar. Bizlar esa: «do'sti nodondan dushmani ziyrak yaxshi», - deymiz... aflatun hakim: «Johilning yaxshi niyati fozilning xususmatidan zararliroqdur. Inson eng yuqimlik bir kasaldan saqlangan kabi jahldan hazar qilmagi lozimdu», - demish».

Nazarimizda, Avloniy ta'kidlarini XX asr boshlaridagi o'zbek bolalar adabiyotining o'ziga xosliklarini belgilaydigan bir hujjat sifatida qabul qilish kerak. E'tiborlisi shundaki, bu ta'kidlar bugungi kundagi bolalar adabiyoti tushunchasiga ham to'lig'icha mos keladi. Shayx Sa'diy an'analarini turkiy adabiyotda davom ettirib, «Turkiy guliston» yaratgan Avloniy o'zining axloqiy qarashlarini o'ttiz uchta yaxshi va yigirma bitta yomoq xulq ta'rifiga jamlaydi. Bu farq, ehtimol, shunchaki tashqi ko'rinish sifatida ham qabul qilinishi mumkindir. Biroq, bizningcha, ana shu tashqi farqdayoq bolalar adabiyotining o'ziga xosliklaridan biri – aniqlik aks etadi. Zero, hayotiy tajribasi katta bo'lган yoshi ulug' kitobxon har fanday asarni o'qib ham o'ziga tegishli xulosani chiqarib olaverishi mumkin. Biroq yosh kitobxon o'z nomi bilan bola, unga yaxshini yaxshi, yomonni yomon deb aniq ko'rsatish hamda biridan o'rganishga, ikkinchisidan hazar qilishga undash kerak. Shuningdek, Shayx Sa'diy «Guliston»ida barcha pandlar go'zal hikoyatlar qobig'a o'ralgan bo'lsa, Avloniyning «Turkiy guliston»ida bitta ham hikoyat yo'q. Muallif bu o'rinda ham yosh kitobxonni saviyasini hisobga olib, aniqlikka intiladi, hatto yosh kitobxon qiziqib o'qishi mumkin bo'lgan go'zal badiiyat namunalari o'rniga sof falsafiy didaktika mahsuli bo'lmiss axloqiyta'limiy pand-nasihatlar va ma'lumotlarni kiritishni maqbul ko'radi hamda fikri xulosasi sifatida she'riy parchalar ilova qiladi. Bu jihat bilan «Turkiy guliston» Alisher Navoiyning «Mahbub ul qulub»iga bir qadar yaqinlashib ketadi. Zero Avloniy o'zi bilan, o'qigan ko'plab forsiy va turkiy pandnoma asarlariga xos bo'lган xususiyatlarni «Turkiy guliston»da jamlagan, sintezlashtirgan desa xato bo'lmaydi. Adabiyotshunos olim B.Qosimovning qayd qilishicha, Abdulla Avloniyning «Birinchi muallim» asari 1917 yilga qadar to'rt marta nashrdan qiarilgan. Kitob «avvalgi sinf shogirdlari uchun» yozilgan bo'lib, o'zida ayni shu davrgacha mavjud bo'lgan dars berish tajribalari va darslik yozish an'analariga suyangan holda yaratilgan. 15 Ikkinci kitob – «Muallimi soniy» yuqoridagi kitobning bevosa davomi, «Alifbodan so'ng o'qutmak uchun» yozilgan, «axloqiy hikoyalar, adabiy she'rlar ila zeynatlangan». Binobarin, u – darslik

majmua sanaladi. U 1912 yilda Toshkentda nashr qilingan va keyinchalik bir necha bor qayta nashr qilingan. Uning mundarijasidan qaysi mavzular borligi anglashiladi. Bolalarga mo'ljallab asar yaratishda ularning yosh xususiyatlarini hisobga olish va bolalar shu asosda tabaqalashtirish ushbu o'qish kitoblarida yanada ochiqroq namoyon bo'ladi. Fikrimiz dalili uchun yana Avloniy asarlariga murojaat qilamiz: «Ikkinchi muallim – birinchi maktablarimizning shogirdlarina alifboden so'ng o'qutmak kerak uchun ochuq til va oson tarkib ila yozilub, axloqiy hikoyalar, adabiy she'rlar ila ziynatlanmish o'quv kitobi» bo'lsa, «Maktab gulistoni – adabiy va axloqiy maroqu shavq ila o'quladurgon hikoyalar she'r ila Turkiston maktablarining ikkinchi sinflaridan boshlab o'quv tamoqig'a muvofiq ravishda yosh bolalar uchun yengil vazn va oson sheva uzra tartib berilgan» kitobdir, deb kitob muovalariga qayd qilingan. «Ikkinchi muallim» axloqiy hikoyalar va adabiy she'rlardan tashkil topgan bo'lsa, «Maktab gulistoni» to'lig'icha she'riy asarlardan tashkil topgan. Abdulla Avloniyning «Milliy she'rlar» to'plami ham ibtidoiy (boshlang'ich) maktablarning 1-4-sinf shogirdlari uchun tasnif qilingan bo'lib, ibratli hikoyalar hamda she'r va masallardan tashkil topgandir. Demak, ushbu tashqi jihat ham muallifning soddadan murakkabga; maktab ostonasiga endi qadam qo'ygan, endigina harf tanigan bolakaylar o'qib anglashi oson bo'lган yengil nasrdan badiif adabiyot nafosatidan boxabar kitobxonlargina qadrlay oladigan va anglab yetadigan, qat'iy shakliy qonunlarga bo'ysunadigan nafis va murakkab nazmga, yana boshqacharoqqilib aytganda, qora so'zdan badiiy so'zga tomon yoo' kitobxonni asta-sekin tayyorlab borganini ko'rsatadi. Zohiriyl o'ziga xoslik shaklda aks etgan bo'lsa, o'qish kitoblari mundarijasining alifbodagilardan ancha kengligi, ularda qamrab olingan mavzular rang-barangligi muallif mazmunda, botinda ham murakkablik tomonga o'sib borganini tasdiqlaydi. Garchi o'qish kitoblarida ham yosh kitobxonlarni ilm-ma'rifat nuridan bahramand bo'lishga chorlash, komil inson bo'lib yetishishlari uchun eng yaxshi insoniy fazilatlarni egallah va yomon sifatlardan tezroq qutilishga undash kabi an'anaviy mavzular yetaksi o'rın tutsa-da, shu an'anaviy mavzularda yaratilgan asarlarning mazmuni ham tobora kengayib, murakkablashib boradi. Shuningdek, o'qish kitoblarida bolalarni kindik qoni to'kilgan Ona Vatanga mehr-muhabbatruhida tarbiyalash, vatanparvarlikka undash, Vatan tuprog'ini, uning benazir tabiaini to'lib-toshib kuylash ruhidagi asarlar ham alohida o'rın egallaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abdulla Avloniy. Tanlangan asarlar. 1-jild. Nashrga tayyorlovchi B.Qosimov. – Toshkent, Ma'naviyat. 2006. 10-b;
2. Abdulla Avloniy. Toshkent tonggi. Nashrga tayyorlovchi B.Qosimov. – Toshkent. 1979. 299-b; Normamatov S. Abdulla Avloniyning til va nutq madaniyatiga oid qarashlari.J/O_zbek tili va adabiyoti. 2004, №4. –B.107-109.
3. Avloniy A. Adabiyot yoxud milliy she'rlar. 1-juz. 1-tab'i. –Toshkent, 1909. 1-2-b.
4. Avloniy Abdulla. Turkiy guliston yoxud axloq. – Toshkent, 1917, 2-tab'i, 95-b.